

**IMPLEMENTATION OF HEALTH MEASURES AMONG THE POPULATION OF VALLEY REGIONS****Abduxalimov Abduraxmon Abdumo'minovich**

Head of the Department of Youth Work, Spirituality and Enlightenment,

Andijan State Medical Institute,

Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor

Mamlakatimizda sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish, aholining jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Fargʻona vodiysi viloyatlari – Andijon, Namangan va Fargʻona hududlarida aholi zich joylashgani, ekologik omillar, ishlab chiqarish sharoitlari hamda turmush tarzining oʻziga xos xususiyatlari sogʻlomlashtirish ishlarini samarali tashkil etishda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Soʻnggi yillarda ushbu viloyatlarda aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etish, sogʻlom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, sogʻlomlashtirish dasturlarining samaradorligini oshirish, ularni har bir hududning demografik va ijtimoiy xususiyatlariga moslashtirish, aholi qatlamlarining faol ishtirokini taʼminlash kabi masalalarga eʼtibor qaratilmoqda.

Birgina Andijon viloyati Oʻsmirlar dispanseri 2013-yilda 177 mingdan ziyod oʻsib kelayotgan yoshlarga tibbiy xizmat koʻrsatgan. Dispanser 25 turdagi zamonaviy tibbiy diagnostik apparatlar bilan jihozlangan boʻlib, inson salomatligi uchun zararsiz boʻlgan raqamli flyuro apparat, ultratovushli tekshiru, elektron kompyuterli elektrokardiogramma apparatlari bilan taʼminlangan. Dispanserdagi oʻsmirlar fiziologiyasi va patologiyasi boʻyicha maxsus bilimga ega boʻlgan yuqori toifali 16 xil turdagi mutaxassislar xizmat qilgan. Dispanser davolash diagnostika, oʻsmirlar va talabalar boʻlimi, doimiy tibbiy chaqiruv komissiyasi va sport tibbiyoti boʻlimlari faoliyat koʻrsatgan. Bu davrda 170 ming 431 nafar tibbiy profilaktik koʻrikdan oʻtgan oʻsmirlarning 2 ming 370 nafarida turli kasallik aniqlanib, sogʻlomlashtirish choralari koʻrilgan.

Sogʻliqni saqlash vazirligining 11-sonli buyrugʻi ijrosi yuzasidan viloyatdagi 88 ming 29 nafar oʻsmir qizlar tibbiy koʻruvdan oʻtkazilib, 45 ming 220 nafari, shundan, 7 ming 469 nafari ginekologik va 37 ming 751 nafarida ekstragenital kasalliklar aniqlandi. Ulardan 36 ming 867 nafari qisqa muddatda sogʻlomlashtirilgan. Oʻsmirlar dispanserida qizlar uchun maxsus qizlar ginekologiyasi xonasi tashkil etilgan boʻlib, bu yerda balogʻatga yetgan qizlar oʻzlari uchun kerakli maslahatlarni mutaxassislardan olish imkoniyati yaratilgan.

2014-yilda Vazirlar Mahkamasining 91-sonli Qarori ijrosini taʼminlash maqsadida tibbiyot muassasalari uchun respublikadan 189 mln soʻmlik 7 dona va Fargʻona viloyat hokimligi tomonidan 216 mln soʻmlik 8 ta “Damas-ambulance” rusumli sanitar avtomobil hamda butlovchi qismlar xarid qilindi.

Istiqlolning dastlabki yillarida Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limi tomonidan qishloq aholisiga ko‘rsatilgan tibbiy yordam sifatini yaxshilash maqsadida shifoxonalarning imkoniyatlari darajasida qishloq fuqarolariga malakali tibbiy yordam ko‘rsatilib, joylarga chiqishlar tashkil qilgan. Jumladan, tumanlardagi 11 ta yuqumli kasalliklar shifoxonalari qoshida reanimatsiya bo‘limlari ochilgan. Tuman shifoxonalari davolangan og‘ir bemorlarni o‘z vaqtida ixtisoslashgan viloyat shifoxonalari keltirish uchun sanitariya-aviatsiya bo‘limi qoshida 3 ta ixtisoslashtirilgan jonlantiruvchi brigadalar tashkil qilingan. Bundan tashqari, Oltiariq va Dang‘ara tumanlaridagi tashxis markazlari hamda 9 ta tumanda xorijdan keltirilgan tibbiyot asbob-uskunalari bilan jihozlangan diagnostika xonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

2015-yilda Farg‘ona viloyati aholisiga tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatayotgan shifokorlar soni 6 ming 249 nafarni, o‘rta tibbiyot xodimlari soni esa 41 ming nafarni tashkil etgan. Viloyatda 59 shifoxona, 375 ta ambulatoriya poliklinika muassasalari, 20 ta davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlari, 19 ta tez tibbiy yordam stansiya va bo‘limlari, 19 salomatlik instituti filial hamda markazlarida davolash profilaktika yordami ko‘rsatilgan.

Yil davomida viloyat tumanlarida “Sog‘lomlashtirish haftaligi” tashkil qilindi. Jumladan, 12-17 yanvar kunlari Yozyovon tumani, 9-14 fevral kunlari Farg‘ona tumani, 9-14 mart kunlari Quva tumani, 6-11 aprel kunlari Rishton tumani, 11-16 may kunlari Uchko‘prik tumani, 8-13 iyun kunlari O‘zbekiston tumani, 8-13 iyul kunlari Beshariq tumani, 7-12 sentyabr kunlari Quvasoy shahar, 12-17 oktyabr kunlari Farg‘ona shahar oilaviy poliklinikalarida, 9-14 noyabr kunlari Bag‘dod tumani, 14-19 dekabr kunlari Buvayda tumanida o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu haftaliklarda respublika va viloyat mutaxassislari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklarda jami 19 ming 871 nafar onalar va bolalar ko‘rilgan. Ularning 11 ming 718 nafarini tug‘ish yoshidagi ayollar, 8 ming 153 nafarini bolalar tashkil qilgan.

Andijon viloyat aholisiga 6 ming 249 nafar shifokor va 41 ming nafar o‘rta tibbiyot xodimi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatgan. Viloyatda aholiga 59 ta shifoxona, 375 ta ambulatoriya va poliklinika muassasalari, 20 ta davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, 19 ta tez tibbiy yordam stansiyasi va bo‘limlari, 19 ta salomatlik instituti filiali hamda markazlari davolash-profilaktika ishlari amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-fevraldagi “Aholi zaif qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tibbiy ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4762-sonli farmoni hamda “Aholining hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2499-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida viloyat nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi, Chuama “Muruvvat” nogironlar uchun ayollar internat-uyi, Bo‘taqora “Muruvvat” nogironlar uchun erkaklar internat-uyi, Qo‘rg‘ontepa “Muruvvat” nogiron bolalar uchun internat-uyi va Andijon “Saxovat” keksalar va nogironlar uchun internat-uylari viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi tasarrufiga kiritilgan.

2016-yilda 50 shifo o‘ringa mo‘ljallangan viloyat nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazida 1 ming 424 nafar bemorlar davolandi. Shifo o‘rinlarni o‘rtacha bandlik ko‘rsatkichi 347,4 kuni tashkil etdi.

Jami 1 ming 80 o‘rinli “Saxovat” va “Muruvvat” internat-uylarida yil davomida 909 nafar aholining zaif va hojatmand qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatildi.

Andijon viloyatidagi shifoxonalarda 502 ming 983 nafar, shu jumladan, shoshilinch tibbiy yordam tizimida 91 ming 909 nafar bemor davolanib, bu jami davolanganlarning 18,3 foizini tashkil qilgan.

Shifoxonada o‘rinlarning o‘rtacha bandlik ko‘rsatkichi 333,7 kunga, bemorlarning o‘rtacha shifoxonada bo‘lishi 6,6 kunga teng bo‘lgan. O‘rin aylanish ko‘rsatkichi 50,0 ni tashkil etgan. Shifoxonadagi o‘lim 0,3 ga teng bo‘lgan. Har 100 aholiga nisbatan statsionarlarda davolanish uchun yotkizilgan bemorlar salmog‘i 17,0 foizni tashkil qilgan.

Shahar va tumanlar hamda viloyat muassasalari bo‘yicha shifo o‘rinlari bandligi tahlil qilinganda shifo o‘rinlar ishi Andijon, Oltinko‘l, Asaka tumanlarida, viloyat sil kasalliklar shifoxonasi, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, teri-tanosil kasalliklar dispanseri va viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida viloyat ko‘rsatkichidan kam bo‘lgan. Bemorlarni o‘rtacha yotib davolanishi 6,6 kunni tashkil qilgan.

Viloyatda 1 ta 300 o‘rinli bolalar, 1 ta 80 o‘rinli kattalar uchun sil kasalliklar sanatoriysi mavjud bo‘lib, ularda 2 ming 69 nafar bolalar va 354 nafar kattalar sog‘liqlari mustahkamlangan. O‘rinlar bandligi bolalar sil kasalliklar sanatoriysida 317,4 kunni, kattalar sil kasalliklar sanatoriysida esa 322,3 kunni tashkil etdi. Bir bemorning o‘rtacha davolanishi bolalarda 46,3 kunga, kattalarda 72,8 kunga teng bo‘ldi.

Farg‘ona viloyatida ambulatoriya-poliklinikalar qoshidagi kunduzgi shifo o‘rinlarda 30 ming 670 nafar, shifoxonalardagi kunduzgi shifo o‘rinlarida 1 ming 81 nafar, uyda tashkil qilingan shifoxonalarda esa 39 ming 189 nafar bemor davolangan. Mavjud tez tibbiy yordam stansiyalari va ularning bo‘linmalari tomonidan 753 ming 385 ta chaqiriqlar bajarilib, unda 869 ming 739 nafar aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida sog‘lomlashtirish tadbirlarini samarali tashkil etish aholining jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish hamda yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazishning muhim omillaridan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida so‘nggi yillarda sog‘lomlashtirish ishlari bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, ularni yanada takomillashtirish, aholining barcha qatlamlarini ushbu jarayonga faol jalb etish zarur. Vodiy viloyatlarida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tizimli va ilmiy asosda olib borish nafaqat aholining sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1. We will build our great future together with our brave and noble people. – Tashkent: Uzbekistan, 2017. – P.16.

2. 2. Khakimova L. Let's prepare the youth for a healthy life. / Medical flower (Andijan), October 14, 2014 No. 28 (8466)
3. 3. Fergana regional state archive, fund 1220, list 1, volume 60, sheet 21.
4. 4. Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Fergana regional department, fund 2048, list 29, volume 76, sheet 232.
5. 5. Current archive of the Andijan regional health department.